

## O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARIDAGI TAOM NOMLARINING QIYOSIY LEKSIK TAHLILI

M.T.Xudayarova,

*Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek tili kafedrasida dotsenti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18168616>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek va turkman tillarida sut mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda taom nomlarining farqlari, nomlash usullari va ularning leksik tizimdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Shu orqali o‘zbek va turkman xalqlari turmushi, oziq-ovqat an‘analari va madaniy xususiyatlari til va leksika orqali yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** taom nomlari, sut mahsulotlari, o‘zbek tili, turkman tili, qiyosiy leksik tahlil, madaniyat va til.

**Аннотация.** В статье проводится сравнительный анализ названий блюд, приготовляемых из молочных продуктов, в узбекском и туркменском языках. В исследовании рассматриваются различия в названиях блюд, способы их номинации и их место в лексической системе. Через данный анализ раскрываются особенности быта, пищевых традиций и культурных характеристик узбекского и туркменского народов посредством языка и лексики.

**Ключевые слова:** названия блюд, молочные продукты, узбекский язык, туркменский язык, сравнительный лексический анализ, культура и язык.

**Abstract.** This article provides a comparative analysis of the names of dishes made from dairy products in the Uzbek and Turkmen languages. The study examines differences in food terminology, naming patterns, and their place within the lexical system. Through this analysis, the everyday life, food traditions, and cultural characteristics of the Uzbek and Turkmen peoples are revealed through language and vocabulary.

**Keywords:** food names, dairy products, Uzbek language, Turkmen language, comparative lexical analysis, culture and language.

**Kirish va dolzarblik.** Tilning leksik tizimi nafaqat borliqdagi predmet va hodisalarni nomlash, balki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniy an‘analarini aks ettiruvchi muhim qatlam hisoblanadi. Shu jihatdan taom nomlari – etnosning tarixiy tajribasi, xo‘jalik faoliyati, oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish usullari, marosim va urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan leksik birliklardir. Turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek va turkman tillarida saqlanib qolgan taom nomlari ushbu xalqlarning qadimgi madaniy aloqalari, umumiy til negizi va keyingi taraqqiyot bosqichlarini yoritishda muhim manba sifatida e‘tiborga loyiqdir.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek va turkman tillaridagi taom nomlari qiyosiy leksik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida mazkur nomlarning tuzilishi, semantik xususiyatlari, nominativ motivatsiyasi, shuningdek, umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Taqqoslash jarayonida tarixiy-lug‘aviy ma‘lumotlar, dialektal materiallar hamda adabiy til namunalari asos qilib olinadi.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ikkala tilda ham taom nomlarining sezilarli qismi qadimgi turkiy ildizlarga tayanadi, ayrim qatlamlarda esa hududiy, ijtimoiy va madaniy omillar

ta'sirida yuzaga kelgan farqlanish kuzatiladi. Ushbu masalani ilmiy asosda o'rganish o'zbek va turkman tillari leksikasining o'zaro bog'liqligini aniqlash, taom nomlarining etnolingvistik va madaniy semantikasini yoritish hamda turkiy tillar bo'yicha olib borilayotgan qiyosiy tadqiqotlar doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** So'nggi yillarda lingvistika sohasida qardosh tillar leksikasini qiyosiy tadqiq qilish faol rivojlanmoqda. Leksik tizimning muayyan mavzuviy guruhlari doirasida o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash tahlil qilinayotgan tillarning har biri uchun avval o'rganilmagan xususiyatlarni ochib berish imkonini beradi.

Tilshunoslikda taom nomlari tadqiqiga oid ishlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, taom nomlari muayyan til tarixiy ildizlari, leksikasidagi taraqqiyoti, ijtimoiy hodisalarning ta'siri haqida tasavvurimizni boyitadi. Milliy oshxonalar, "taom" leksik-frazeologik maydonining tahliliga bag'ishlangan [4] turkiy xalqlardagi an'anaviy milliy taomlar nomlari tadqiq qilingan ishlar [1;3;5;6] shundan dalolat beradi.

O'zbek tilida taom nomlarini tadqiq qilgan N.Ikromova 1959 yilda nashr qilingan o'zbekcha-ruscha lug'atda 117 ta, 1981 yilda nashr qilingan ikki jildlik o'zbek tili izohli lug'atida 150 ta taom nomlari uchrashini qayd qiladi [2]. Bu o'zbek tili lug'at tarkibida sinxron holatda uchraydigan taom nomlaridir. Ularning barchasi adabiy til xazinasiga alohida soha leksikasi sifatida kirgan va o'zbek tili leksik tarkibidan mustahkam o'rin olgan leksik birliklardir. 2006-2008 yillar oralig'ida nashr qilingan «O'zbek tilining izohli lug'ati»da 165 ta taom nomi berilgan bo'lib, shevaga xos bo'lgan taom nomlari ham kiritilgan [10].

Tadqiqotchilar ko'pdan beri ko'plab tillar tuzilmasida qiyoslash natijasida umumiy belgilar mavjudligini ta'kidlab keladilar. Mazkur tadqiqotda o'zbek va turkman tillarida "taom" mavzuviy guruhiga oid ayrim umumiy leksemalarni ko'rib chiqish maqsad qilib olindi. Ularning paydo bo'lishi ushbu xalqlarning tarixi va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir.

Turkman tilidagi taom nomlari turkman tilining izohli lug'atlaridan tanlab olindi [7;8].

**Tadqiqot natijalari.** Taom nomlarining qanday mahsulotlardan tayyorlanishi va shunga mos holda ularning turli nomlar bilan atalishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, har bir hudud aholisi tilida katta farqlarni ko'rsatadi. Bu farqlar hudud aholisi turmush tarzi, hududda yetishtiriladigan o'simlik va hayvonot turlari hamda ziroat mahsulotlarining xalq maishiy hayotiga ta'sirining, pirovardida esa tilga, xususan taom nomlariga ta'sirining natijasi sifatida yuzaga kelgan.

O'zbek va turkman tillarida taom nomlarining ko'pchiligi ularning qaysi mahsulotlardan tayyorlanishiga qarab atalgan nomlardan iborat. Albatta, bu tillarda taom nomlari tizimida boshqa usullar asosida nomlangan taomlar ham mavjud bo'lsa-da, mazkur maqolada sut mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari asosida tahlil qilinadi.

Sut mahsulotlari o‘zbek va turkman xalqlari madaniyatida asosiy oziq-ovqat qatlamini tashkil qiladi. Ushbu mahsulotlar nafaqat kundalik ovqatlanish, balki xalqning etnolingvistik va madaniy merosida ham muhim ahamiyatga ega. Tarixan shakllangan oziqlanish tizimida sut va uning turli shakllari (*qatiq, qurt, suzma, qaymoq* va boshqalar) ovqat tayyorlashda keng qo‘llanilgan [9].

Lingvistik nuqtayi nazardan, sut mahsulotlaridan tayyorlanadigan taomlarning nomlari tilda qadimiy ildizlarga asoslangan bo‘lib, ular o‘xshash morfemalar va fonetik shakllarda uchraydi. Masalan: *sut* (o‘zbek) – *süýt* (turkman.), *ayron* (o‘zbek) – *ayran* (turkman), *suzma* (o‘zbek) – *süzme* (turkman), *irimchik* (o‘zbek) – *eprik* (turkman), *qatiq* (o‘zbek) – *gatyk* (turkman), *qaymoq* (o‘zbek) – *gaymak* (turkman), *maska* (o‘zbek) – *mesge* (turkman) kabi. Ushbu nomlar faqat taomning nomi sifatida emas, balki xalqning an’anaviy ovqat tayyorlash usullari va madaniy xususiyatlarini ham aks ettiradi.

O‘zbek va turkman xalqlari orasida sut mahsulotlarini tayyorlash texnologiyasi uzoq tarixiy davr davomida shakllangan bo‘lib, ular orasidagi jarayonlarda sezilarli o‘xshashliklar mavjud. Sut mahsulotlarini choyga qo‘shish, ovqatlarga aralashtirish, qatiq yoki suzma tayyorlash kabi usullar nafaqat taomlarning ta’mini, balki ularning turli nomlar bilan atalishini ham belgilaydi. Bu jarayonlar har ikki xalqning turmush tarzi, madaniy odatlari va oziq-ovqat an’analarini aks ettiradi.

Masalan, turkman tilida *süýtli aş, süýtli şüle, akýüwrük, balgaymak* kabi nomlar mavjud bo‘lib, ular asosan sutdan tayyorlangan turli xildagi taomlarni bildiradi. O‘zbek tilida esa bu turdagi taomlar *sutli osh, shirchoy, shirguruch, shirqovoq, sutli atala, qatiq xo‘rda* kabi nomlar bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, ushbu nomlar nafaqat masalliqa, balki tayyorlash usuliga va ba’zan taomning madaniy kontekstiga ham bog‘liqdir.

Shu ma’noda, sut mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom nomlari o‘zbek va turkman tillarida bir-biriga yaqin leksik tizimni tashkil qiladi. Bu o‘xshashliklar masalliqalar va tayyorlash usuli bilan bog‘liq bo‘lib, ikki xalq madaniy va lingvistik merosini aks ettiradi. Shu sababli, qiyosiy leksik tahlil davomida bu nomlar, ularning kelib chiqishi, shakllanish mexanizmlari va lingvistik xususiyatlari batafsil o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** To‘plangan barcha materiallar va qiyosiy tahlillar asosida, o‘zbek va turkman xalqlari tili va ularning milliy mentaliteti qadimgi turk negiziga borib taqalishini yana bir karra isbotlash mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, milliy yaxlitlik nafaqat madaniy va tarixiy, balki lingvistik jihatdan ham ko‘p tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, umumxalq tili shu asosda shakllanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, taom nomlari misolida ham bu yaxlitlikning ifodasi aniq ko‘zga tashlanadi.

Taom nomlari – o‘zbek va turkman xalqlari turmush tarzi, oziq-ovqat an’analari va hududiy sharoitlarini aks ettiruvchi lingvistik birliklar sifatida o‘rganildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, taom nomlarida ko‘rinadigan fonetik va morfologik o‘xshashliklar, hududiy farqlar va variantlar orqali o‘zbek va turkman tillari o‘rtasidagi lingvistik va madaniy

bog‘liqlik yanada ravshan bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, til va milliy mentalitet o‘rtasidagi mustahkam aloqani ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Аминова Ф.С. названия традиционной пищи в башкирском языке. Москва. 2005.
2. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983.
3. Жилкубаева А.Ш. Лексика питания в тюркских языках. (лингвокультурологический аспект) Научная монография. – Усть- Каменогорск: Издательство ВКГУ им. С.Аманжолова. 2012.
4. Капелюшник Е.В. Кулинарный код культуры в семантике образных средств языка. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата филологических наук. Томск. 2012. – 21 с.
5. Копушу В. Названия традиционных мясных блюд турецком и гагаузском языках. Комрат, 2014.
6. Николаев Е. Р. Диалектные названия якутских блюд (продуктов) в контексте языковой картины мира. Российский гуманитарный журнал. 2019. Том 8. №2. 141-152.
7. Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. I-t. A-Ž. – Aşgabat: Ýlym, 2016. – 658 sah.
8. Türkmen diliniň düşündirişli sözlügi. 2-t. K-Z. – Aşgabat: Ýlym, 2015. – 542 sah.
9. Худаярова М. Ўзбек тилида таом номлари (Қорақалпоғистон худуди материаллари асосида). – Тошкент: Ноширлик ёғдуси, 2020. 114 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбек миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, V жилдлик, 2006, 2007, 2008.

